

SUMALAK - KO'KLAM MO'JIZASI

(Afsona)

Aytishlaricha, qadim zamonlarda bir kambag'al ayol yashagan ekan. Uning Hasan-Husan degan o'g'illari ham bo'lib, ular hali juda yosh ekanlar. Ayolning topgan-tutgani qishligiga zo'rg'a yetib, bir amallab ko'klamga chiqib olibdilar. Uylarida yegulik hech vaqolari qolmabdi. O'zi-ku, mayliku-ya, lekin ikki norasidasining qorinlari ochib, non so'rab, zor-zor yig'lashlarini ko'rib, onaizor chidab turolmabdi. Ularni o'yin-kulgu bilan ovutmoqchi bo'lgan ekan, bari bir egizaklar xarxasha qilaveribdilar. Shunda ona bechora nima qilarini bilmay, o'choq boshiga boribdi-da:

-Bolalarim, birpasgina o'ynab o'tiringlar, men hozir sizlarga ovqat pishirib beraman, — deb qozonga suv solib, tagiga o't qalabdi. So'ngra dalaga chiqib, o'tgan yilgi bug'doypoyadan bug'doy tomirlarini, endigina nish ura boshlagan har xil o't-o'lanlardan terib kelib, yaxshilab yuvibdi-da, qozonga solibdi. Un xaltasini, suprasini qoqishtirgan ekan, bir-ikki kappa un-urvoq chiqibdi, uniyam qozonga tashlab, qaynataveribdi. Kavlayotganda ovozi chiqib, bilinib tursin uchim besh-oltita toshchalamiyam yuvib qozonga tashlabdi-da, cho'mich bilan aylantiraveribdi. Har aylantirganda toshlar sharaqlab ovoz chiqarar, buni eshitgan Hasan bilan Husan: “Onamiz bizga ovqat pishiryaptilar”, — deb suyunishib, o'ynay boshlashibdi. Tun yarmidan og'ganda bolalar o'ynay-o'ynay charchab, oxiri uxlab qolibdilar. Ona bo'lsa qozonni kavlashdan to'xtamay, go'daklari och-nahor uxlab qolganliklariga ichi achishib, ko'z yoshi shoshqator bo'lib, Tangriga iltijo qilibdi: “Ey, Xudo, shu pishirayotgan ovqatinga nazar tashla. Ikki norasidaning rizqini o'zing yetkaz, shirinligingni ato qilgin. Biz g'ariblardan marhamatingni darig' tutma”.

Tongga yaqin ona ham kavlashdan charchab, qozonning qopqog'ini yaxshilab yopib, damlabdi-da, bolalarining yoniga yonboshlab uyquga ketibdi. Ertalab bolalarining shovqinidan uyg'onib ketibdi. Qarasa, Hasan-Husanlar qozonga qo'lchalarini tiqib, nimanidir yalashayotganmish. Mo'jiza ro'y berganidan onaizorning o'zi ham hayratlanibdi. So'ngra jimjilog'i bilan qozondagi taomdan yalab ko'rsa, shirin narsa ekan. Shunda bolalari:

- Ona, bu ovqatingizning nomi nima? — deb so'rashgan ekan, ona qozon
- To'la qizg'ish shirinlikni bolalar tez-tez barmoqlari bilan yalayotganliklariga qarab turib:
- Bolalarim, bu maloyikalarning karomati bilan pishdi. Uning oti sermalak, — debdi.
- Bu so'z keyinchalik “sumalak” bo'lib o'zgarib ketgan ekan. Hatto hozir ham keksa onaxonlarimiz-u, pir-u badavlat otaxonlar sumalakni tatib ko'rishdan avval: “Qani, Hasan-Husanlarning taomidan yalaylik”, — deb, avval jimjilog'lari bilan yalashadi. Sumalak pishirish udumi ana shundan kelib chiqqan ekan.

Gulgina kitobidan